


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**70410109 – “Iqtisodiy xavfsizlik” mutaxassisligining**

***MALAKA TALABI***

**Toshkent-2024**



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil “01” 08 dagi 277 – sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

<b>T/r</b>		<b>bet</b>
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>8</b>
<b>3.</b>	<b>Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>8</b>
<b>4.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>	<b>9</b>
	<b>Bibliografik ma’lumotlar .....</b>	<b>10</b>
	<b>Kelishuv varag‘i .....</b>	<b>11</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

70410109 - Iqtisodiyot mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. (Oliy harbiy ta'lim muassasalari bundan mustasno Kunduzgi ta'limda magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talablari 70410109 - Iqtisodiy xavfsizlik mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur mutaxassislik bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

mutaxassislikning o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

Barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalar, nodavlat va notijorat tashkilotlari, markaziy va mahalliy davlat boshqaruv organlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarida iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va takomillashtirish bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

Davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va soha korxonalarida iqtisodchi.

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

makro-, mikro-, mezo- darajalarda iqtisodiy xavfsizligini baholovchi iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi;

makro-, mikro-, mezo- darajalarda iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, iqtisodiyot sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar, tajriba-konstruktorlik ishlari;

davlat va mahalliy boshqaruv organlari, iqtisodiyot va moliya organlarida komplaens nazorat jarayonlari;

iqtisodiyotning tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari, turli mulkchilik shaklidagi assotsiatsiyalar, korporatsiyalar, konsernlar, firma, kompaniyalar, xolding, ishlab chiqarish birlashmalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash tashkil etish va komplaens tizimini boshqarish jarayonlari;

tarmoqlar va sohalarda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish bo‘yicha ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashtirishni amalga oshirish jarayonlari;

iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ta’sir etuvchi risklarni aniqlash va baholash;

biznes tuzilmalarida raqobat razvedkasi faoliyati jarayonlari.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *pedagogik;*
- *moliyaviy-iqtisodiy;*
- *hisob, tahlil va nazorat taftish;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *konsalting xizmati;*
- *axborot-tahliliy faoliyat.*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

70410109 - Iqtisodiy xavfsizlik mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

#### **Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida:**

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma’ruzalar, risola, o‘quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo‘yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta‘lim muassasalarida mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik va o‘quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o‘quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o‘quv-metodik majmualarni mukammal o‘zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

**Moliyaviy-iqtisodiy:**

davlat, mahalliy hukumat va xo‘jalik yurituvchi subektlar iqtisodiy faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonunlari hamda me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o‘z faoliyatida foydalana olish;

iqtisodiyot tarmoq va sohasining miqdor va sifat me‘zonlari, iqtisodiy tizim va obektlar chegaraviy hamda kritik holatining indikatorlarini aniqlash;

barqaror iqtisodiy rivojlanish sohasida yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo‘yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish;

iqtisodiyot subektlarining moliyaviy xavfsizligini ta‘minlash va uni rivojlantirish yo‘llarini ishlab chiqish;

makro-, mezo-, mikro- darajalarda ob‘yektlarni moliyaviy xavfsizligini baholash va unga salbiy ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash, baholash va bartaraf etish;

davlat va mahalliy resurslardan foydalanish borasida qonunbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini kurish;

moliya operatsiyalari, moliya bozori faoliyati monitoringini olib borish, davlat va mahalliy tashkilotlar, korxonalarda komplaens nazorat tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishini baholash, qonunbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish.

**Hisob, tahlil va nazorat taftish faoliyatida:**

- iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash yuzasidan aniq iqtisodiy hisob- kitoblarni amalga oshirish uchun zarur bulgan, olingan topshiriq buyicha axborot ma'lumotlarini izlash, tuplash va tahlil qilish;

- iqtisodiy ma'lumotlar to‘plamini quyilgan topshiriqqa asosan qayta ishlash, tahlil qilish, baholash, olingan natijalarni qiyoslash va asoslangan xulosalarga kelish;

- mutaxassislik faoliyati sohasiga tegishli tadqiq etilayotgan jarayonlar, hodisalar hamda ob'ektlarni standart nazariy va ekonometrik modellarini tuzish, tahlil qilish va olingan natijalarni qiyoslash;

- O‘zbekintondagi hamda xorijdagi mikro va makrodarajada sodir bo‘ladigan, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda xodisalarni xarakterlaydigan ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va qiyoslash;

taxminiy hisobotlar va axborotlar sharhini tayyorlash;  
statistik kuzatishlar, so‘rovlar, anketa so‘rovlari va ularning birlamchi natijalarini qayta ishlash;

mutaxassislik faoliyati soxasidagi loyiha yechimlarini ishlab chiqishda ishtirok etish, ishlab chiqilgan loyiha va dasturlarni xayotga tatbiq etish buyicha takliflar va chora-tadbirlarni tayyorlash;

iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi xavf-xatarlarni aniqlash;

davlat va mahalliy tashkilotlar, korxonalarda ichki nazorat va audit tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishini baholash;

moliya bozori faoliyati monitoringini olib borish;

iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurash chora-tadbirlarini shakllantirish, ularni aniqlash, bartaraf etishda ishtirok etish;

iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga daxldor bulgan iqtisodiy jarayonlarni monitoring qilish, axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash va baholash.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O‘zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;

dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

Vatan tarixini bilishi, ma‘naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqloq g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;

xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, huquqiy hamda me‘yoriy-huquqiy hujjatlar;

rejalashtirish ishlarini tashkil etish;

xo‘jalik yurituvchi sub’ektini xo‘jalik-moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyati bo‘yicha istiqbolli va joriy rejalarni (dasturlarini) ishlab chiqish;

xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni iqtisodiy faoliyatini oqilona tashkil etishda mamlakatimiz va xorij tajribasini o‘rganish;

ishlab chiqarishni texnologik asoslarini bilish;

xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni texnika-iqtisodiy hisob-kitoblar va xo‘jalik faoliyati tahlilini olib borishda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish;

mehnatni muhofaza qilish me‘yor va qoidalariga amal qilish.

iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun tashkil etilgan jamoa va guruhlarni tezkor ravishda boshqarish;

fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalar ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

#### **Konsalting xizmati faoliyati:**

sud-iqtisodiy ekspertizalarni amalga oshirish;

huquq-tartibot va boshsa muassasalar topshirigiga asosan tadqiqotlar olib borish;

vujudga kelgan moliyaviy vaziyatni aniqlash maqsadida tashkilot, korxonalar va muassasalarning moliyaviy-xujalik faoliyatini ekspert baholash;

ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni taranglashuviga sabab buladigan omillar riskini baholash;

vujudga kelishi mumkin bulgan favsulotda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni prognozlash, ularni bartaraf etish yoki yumshatish buyicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik buzilganda iqtisodiy yukotishlarini baholash hamda ularni qoplash zahiralari aniqlash;

me'yoriy-huquqiy xujjatlarni iqtisodiy ekspertizadan utkazish;

biznesning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash sohasida uslubiy tavsiyalarni ishlab chisish;

iqtisodiy xavfsizlikka potensial va real tahdid soluvchi masalalarni aniqlash yuzasidan maslahatlar berish, mutaxassislikka mos bo'lgan mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruhlarida rais (ishtirokchi) sifatida qatnashish;

mutaxassislikka mos mavzular bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish.

**Axborot-tahliliy faoliyatida:**

axborotlarni yig'ish va ularni qayta ishlash;

iqtisodiy o'zgarishlar ularning ta'sirini sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish, oqibatlarini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilish, ulardan ilmiy faoliyatda foydalana olish;

iqtisodiy masalalar yuzasidan ijtimoiy fikrni shakllantirish hamda milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari nuqtai nazarini o'rganish borasida tahliliy ishlar olib borish;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

**2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan foydalana olish, axborotlashgan jamiyat sharoitida raqamli iqtisodiyotning mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarini anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo‘linmalari tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishda iqtisodiy tamoyillarni qo‘llay bilish;

bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, tarmoqlar va sohalar bo‘yicha moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash, ularga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishni va tahliliy ishlarni bajarish;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha moliyaviy, iqtisodiy, strategik rejalarni ishlab chiqish, iqtisodiy sohada yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo‘yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish;

loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash;

iqtisodiy vaziyatlarga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega bo‘lish;

me’yoriy-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy ekspertizadan o‘tqazish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

### **3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.**

Ilmiy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish,

tegishli ilmiy-tadqiqot va amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha quyidagi amaliyot o'tkaziladi:

1. Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti.
2. Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash.

#### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>			
1.01	ITM1105	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	150	5	1
1.02	MFO'M1105	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	150	5	1
1.03	RISMAN1105	Risk menejmenti	150	5	1
1.04	FINSEC1105	Moliyaviy xavfsizlik	150	5	1
1.05	STAES1205	Davlatning iqtisodiy xavfsizligi	150	5	2
1.06	ECOCRI1205	Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi	150	5	2
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	<b>2,3</b>
<b>2.00</b>		Tanlov fanlar	<b>900</b>	<b>30</b>	<b>2,3</b>
	<b>Kvalifikatsiya</b>	<b>Iqtisodchi (pedagog-tadqiqotchi)</b>			
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti	600	20	1,2,3,4
		Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	1200	40	1,2,3,4
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	

## **Bibliografik ma’lumotlar**

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so‘zlar:**

Kasbiy faoliyat turi, mutaxassislik, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning asosiy o‘quv reja va o‘quv dasturlari, profil, o‘qib-o‘rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, magistraturaning o‘quv jarayoni, iqtisodiyot, mustaqil ta’lim, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot jarayoni, tashkiliy-boshqaruv, moliyaviy-iqtisodiy, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish, hisob, tahlil va nazorat, konsalting xizmati, axborot-tahliliy faoliyat, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o‘quv fanlari bloki, oliy ta’lim muassasasi, ta’lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot usullari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:**

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**  
Rektor T.V. Teshabayev

2024 yil “ 19 ”

M.O’

**KELISHILDI:**

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar**  
**vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni**  
**rivojlantirish tadqiqotlari markazi**  
Direktor M. Boltabayev

2024 yil “ 19 ”

M.O’

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi**  
**O‘zbekiston milliy universiteti**

Rektor I. Madjidov

2024 yil “ 19 ” 06

M.O’

**“Poytaxtbank” AJ**

Boshqaruv raisi  
X. Raxmatov

2024 yil “ 20 ” 06

M.O’

**“O‘zbekiston iqtisodiyotini**  
**rivojlantirishning ilmiy asoslari va**  
**muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi**  
Direktor M. Kalonov

2024 yil “ 19 ” 06

M.O’